

Musallam Abdujabbarova

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"ijtimoiy gumanitar fanlar" kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi
E-mail: abdujabbarovamusallam@gmail.com
ORCID: 0009-0002-0466-0164*

O'ZBEK MUSIQA MADANIYATIDA SHARQ NAVOLARI: TARIXIY- MUSIQIY AN'ANALAR VA ZAMONAVIY TALQIN

***Annotatsiya.** Maqolada o'zbek musiqa madaniyatida Sharq navolarining tarixiy shakllanishi, milliy musiqa an'analaridagi o'rni va zamonaviy talqini yoritiladi. Sharq musiqiy tafakkuri, maqom va milliy ijrochilik an'analarining o'zaro uyg'unligi tahlil qilinadi. Shuningdek, so'nggi yillarda O'zbekiston musiqa madaniyatida milliy musiqiy merosni asrab-avaylash va rivojlantirish, xalqaro miqyosda targ'ib etish borasidagi yuksalishlar qisqacha aks ettiriladi. Tadqiqot O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan milliy musiqa san'atining tarixiy va zamonaviy taraqqiyotini yoritishga bag'ishlangan.*

***Kalit so'zlar:** o'zbek musiqa madaniyati, Sharq navolari, milliy musiqa, maqom, musiqiy an'analar, milliy meros, zamonaviy talqin, musiqiy san'at, ijrochilik, musiqa madaniyati taraqqiyoti.*

ВОСТОЧНЫЕ НАПЕВЫ В УЗБЕКСКОЙ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЕ: ИСТОРИКО-МУЗЫКАЛЬНЫЕ ТРАДИЦИИ И СОВРЕМЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ

***Аннотация.** В статье освещаются историческое формирование восточных интонаций в узбекской музыкальной культуре, их место в национальных музыкальных традициях и современные интерпретации. Анализируются взаимосвязь восточного музыкального мышления, искусства макама и традиционного исполнительства. Особое внимание уделяется достижениям последних лет в сохранении, развитии и международной популяризации национального музыкального наследия Узбекистана. Исследование посвящено историческому и современному развитию*

музыкального искусства в связи с 35-летием независимости Республики Узбекистан.

Ключевые слова: узбекская музыкальная культура, восточные интонации, национальная музыка, маком, музыкальные традиции, национальное наследие, современная интерпретация, музыкальное искусство, исполнительство, развитие музыкальной культуры.

EASTERN MELODIES IN UZBEK MUSIC CULTURE: HISTORICAL AND MUSICAL TRADITIONS AND MODERN INTERPRETATION

Abstract. *The article explores the historical formation of Eastern musical intonations in Uzbek musical culture, their role in national musical traditions, and their contemporary interpretations. It analyzes the interaction between Eastern musical thinking, maqom art, and traditional performance practices. Particular attention is given to the achievements of recent years in preserving, developing, and promoting Uzbekistan's national musical heritage internationally. The study highlights the historical and contemporary development of Uzbek musical art in connection with the 35th anniversary of the independence of the Republic of Uzbekistan.*

Keywords: *uzbek musical culture, Eastern musical intonations, national music, maqom, musical traditions, national heritage, contemporary interpretation, musical art, performance, development of musical culture.*

Musiqa til va chegara bilmaydi. U inson qalbiga bevosita yo'1 topadigan, xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiradigan eng ta'sirchan madaniy muloqot vositalaridan biridir. Shu ma'noda musiqa nafaqat san'at, balki madaniy diplomatiyaning ham muhim shakli sifatida namoyon bo'ladi.

Tanburning yagona simli toriga noxun bilan urilgan mayin va jarangdor tovushni eshitganmisiz? Unda shunchaki musiqiy ohang emas, balki asrlar silsilasi, Samarqand gumbazlarida aks-sado bergan tarix, Boburning Vatan sog'inchi va ajdodlar ruhi mujassamdek tuyuladi.

Nayning mayin va hazin sadosi esa inson qalbining eng nozik tuyg'ularini uyg'otib, tinglovchini sukutga cho'mdiradi, uni moziy xotiralari bilan yuzlashtiradi.

O'zbek xalqi hayotida musiqa shunchaki kuy-qo'shiq yoki ko'ngilochar vosita bo'lib qolmagan. U millatning tilsiz bayon etilgan murakkab tarixi, falsafiy tafakkuri, ma'naviy dunyosi va ezgulikka intilishining ifodasidir. O'zbek musiqa madaniyati xalqimizning ko'p asrlik ma'naviy merosining ajralmas qismi bo'lib, uning shakllanishi va taraqqiyoti Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining uzoq tarixi bilan chambarchas bog'liq. Bugun dunyo sahnalarida yangrayotgan o'zbek maqomlari, milliy kuy va qo'shiqlari tasodifan paydo bo'lgan emas. Ularning ildizlari qadimgi Baqtriya, So'g'diyona va Xorazm madaniyatlariga, keyinchalik esa Islom uyg'onishi hamda Temuriylar davrida yuksak taraqqiy etgan ilmiy-madaniy muhitga borib taqaladi.

Arxeologik tadqiqotlar natijasida Afrosiyob, Tuproqqal'a, Varaxsha kabi tarixiy yodgorliklardan musiqachilar va cholg'u asboblari tasvirlangan devoriy suratlarning topilgani Markaziy Osiyo hududida musiqa san'ati qadimdan shakllanganini ko'rsatadi [1]. Nay, surnay, karnay va changa o'xshash cholg'ular xalq bayramlari, harbiy marosimlar hamda turli an'anaviy udumlarning muhim tarkibiy qismi bo'lgan. Buyuk Ipak yo'li ham nafaqat savdo-sotiq, balki xalqlar va madaniyatlar o'rtasidagi ma'naviy muloqot yo'li vazifasini bajargan. Shu jarayonda mahalliy musiqiy an'analar fors, arab, turkiy, hind va xitoy musiqa madaniyatlari bilan o'zaro ta'sirga kirishib, boyib borgan. Asrlar davomidagi ana shu madaniy almashinuvlar mintaqadagi musiqa san'atining o'ziga xos uslub va an'alarini shakllantirishga xizmat qilgan.

IX–XII asrlardagi Islom uyg'onishi davri musiqa nazariyasining rivojida alohida o'rin tutadi. Buyuk faylasuf Abu Nasr Forobiy "Kitob al-musiqo al-kabir" asarida musiqaning nazariy asoslarini ishlab chiqib, uni matematik va falsafiy jihatdan tahlil qildi [2]. Qomusiy olim Abu Ali ibn Sino esa musiqaning inson ruhiyatiga ta'siri, uning tarbiyaviy va davolovchi xususiyatlari haqida qimmatli

fikrlarni ilgari surdi. Ularning ilmiy merosi Sharq musiqashunosligi taraqqiyotida muhim o'rin egallagan.

Ayniqsa, XIV–XV asrlarda Temuriylar davrida ilm-fan, adabiyot va san'atning barcha sohalari qatori musiqa ham yuksak taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi. Samarqand va Hirot yirik madaniy markazlarga aylanib, saroy muhitida shoirlar, bastakorlar va sozandalar faoliyat yuritdilar. Bu muhitda musiqa she'riyat bilan uyg'unlashib, yuksak estetik qadriyat darajasiga ko'tarildi [3].

Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida turli xalqlarning urf-odatları, bayramlari, cholg'u asboblari va musiqiy an'analari haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan. Bunday tarixiy manbalar xalqimizning ma'naviy va madaniy qadriyatlari asrlar davomida uzluksiz taraqqiy etgani hamda milliy o'zlikni saqlashda muhim omil bo'lib xizmat qilganini ko'rsatadi.

Bugun Yangi O'zbekiston taraqqiyotining muhim bosqichi sifatida Vatanimiz mustaqilligining 35 yillik zafarli yo'lga nazar tashlar ekanmiz, boy tarixiy va ma'naviy merosimiz milliy madaniyat va san'atimizni yuksaltirishda mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilayotganiga guvoh bo'lamiz. O'zbek musiqa madaniyati o'zining asriy an'alarini saqlagan holda zamonaviy taraqqiyot jarayonlariga moslashib, xalqaro madaniy maydonga dadil kirib bormoqda. Shu jihatdan milliy musiqa bugun nafaqat badiiy meros, balki O'zbekistonning xalqaro madaniy imijini shakllantiruvchi muhim omil va madaniy diplomatiyaning ta'sirchan vositalaridan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, 2016–2026-yillar davrida o'zbek musiqa madaniyatini xalqaro miqyosda targ'ib qilish borasida izchil ishlar amalga oshirildi. Milliy musiqa san'ati nufuzli xalqaro festivallar, madaniy forumlar va konsert dasturlari orqali keng jahon jamoatchiligiga namoyish etildi.

Shu bilan birga, YUNESCO va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik doirasida maqom, baxshichilik, milliy cholg'u ijrochiligi va nomoddiy madaniy meros namunalarini asrash hamda targ'ib qilishga qaratilgan tashabbuslar kengaydi. Raqamli texnologiyalar va media platformalardan samarali foydalanish esa o'zbek musiqasini global axborot makonida yangi auditoriyalarga yetkazish imkonini berdi.

O'zbek musiqa madaniyatining xalqaro miqyosdagi nufuzi, avvalo, "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali misolida yaqqol namoyon bo'ladi. 1997-yilda ilk bor o'tkazilgan festivalda 31ta mamlakat vakillari ishtirok etgan bo'lsa, 2024-yilda bo'lib o'tgan XIII festivalda dunyoning 80dan ortiq mamlakatidan ishtirokchilar qatnashdi. Bu raqamlar festival yillar davomida nafaqat O'zbekiston, balki jahon musiqa madaniyatining muhim xalqaro muloqot maydonlaridan biriga aylanganini ko'rsatadi.

Festival doirasida tashkil etilgan "Sharq xalqlari musiqa madaniyati: globallashtirish jarayonlarida ijodiy uyg'unlashuv tamoyillari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada milliy musiqiy merosni raqamli formatda targ'ib qilishga qaratilgan "Maqom kapsulasi" loyihasi taqdim etildi. Loyiha doirasida 100 dona "Maqom kapsulasi" tayyorlanib, konferensiya va festival ishtirokchilariga tarqatildi. Kapsulalarga o'zbek mumtoz musiqasi va maqom namunalari, shuningdek, har bir maqomning an'anaviy ijro vaqti va xususiyatlari haqida ma'lumot beruvchi raqamli materiallar joylashtirildi. "Maqom kapsulasi" tashabbusi milliy madaniy merosni nafaqat sahna ijrosi orqali, balki zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida saqlash, ommalashtirish va xalqaro auditoriyaga yetkazish imkoniyatlarini namoyon etdi. Shu ma'noda u maqom san'atini zamonaviy axborot makoniga olib kirish va uning xalqaro ilmiy-madaniy muloqotdagi o'rnini mustahkamlashga qaratilgan innovatsion yondashuv sifatida ahamiyatlidir.

2026-yil 23–26-iyun kunlari Namangan shahrida YUNESCO va ICESCO (ICESCO) homiyligida III Xalqaro maqom san'ati forumi bo'lib o'tdi. Mazkur anjuman maqom san'atini asrash, rivojlantirish, yosh avlod o'rtasida keng targ'ib qilish va xalqaro ilmiy-ijodiy hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratildi.

Forum doirasida ilmiy-amaliy konferensiyalar, xalqaro maqom ijrochilari tanlovi, konsert dasturlari va turli madaniy tadbirlar tashkil etildi. Unda 80dan ortiq mamlakatdan 230dan ziyod xorijiy ishtirokchi hamda xalqaro tashkilotlar vakillari qatnashdi. Mazkur forum maqom san'atining tarixiy va ilmiy ahamiyatini yana bir

bor namoyon etish bilan birga, O'zbekiston musiqa madaniyatining zamonaviy jahon madaniy jarayonlaridagi faol o'rnini ham ko'rsatdi. Zero, milliy musiqa merosining barqaror rivoji uni asrash va targ'ib qilish bilan bir qatorda, uni zamonaviy ijodkorlar salohiyati orqali jahon sahnalariga olib chiqishni ham taqozo etadi. O'zbek musiqa san'atining xalqaro nufuzi faqat milliy musiqiy merosning targ'ibi bilan emas, balki jahon sahnalarida muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan iste'dodli ijodkorlar misolida ham namoyon bo'lmoqda.

Toshkentda tug'ilib, jahon klassik musiqa sahnasida o'zbek ijrochilik maktabining munosib vakili sifatida tanilgan pianist Behzod Abduraimov ana shunday ijodkorlardan biridir. U dunyoning nufuzli konsert zallarida, jumladan, Nyu-Yorkdagi Carnegie Hall sahnasida muvaffaqiyatli konsertlar berdi. 2019-yil 10-dekabr kuni Carnegie Hall'ning Stern Auditorium / Perelman Stage sahnasida bo'lib o'tgan yakkaxon konsertida pianist Friderik Shopenning "24 prelyudiya", Klod Debyussining "Children's Corner" va Modest Musorgskiyning "Ko'rgazmadagi rasmlar" asarlarini ijro etdi. Uning xalqaro sahnalardagi faoliyati o'zbek pianistlik maktabining jahon klassik musiqasi maydonidagi nufuzini namoyon etuvchi muhim misollardan biridir.

Milliy musiqa merosining xalqaro targ'ibotida maqom san'ati namoyandalarining ham o'rnini beqiyos. Munajot Yo'lchiyeva ijodi orqali o'zbek mumtoz qo'shiqchiligi va maqom san'atining betakror ohanglari turli mamlakatlarda yangradi. Uning ijro uslubi, vokal mahorati va an'anaviy san'atga sadoqati milliy musiqa maktabining nufuzini oshirishga xizmat qildi. O'zbek musiqasining zamonaviy qiyofasini jahon auditoriyasiga tanitishda Sevara Nazaxonning o'rnini ham alohida. U milliy ohanglarni zamonaviy musiqa yo'nalishlari bilan uyg'unlashtirib, o'zbek san'atining yangi ijodiy imkoniyatlarini namoyon etdi. Uning xalqaro maydondagi e'tirofi, jumladan, 2004-yilda BBC Radio 3 World Music Awards mukofotining "Best Asian Artist" yo'nalishida g'olib bo'lgani buning yorqin misolidir. Abbas Qosimov esa o'zbek doira ijrochiligini xalqaro sahnaga olib chiqqan san'atkorlardan biri sifatida e'tirof etiladi. U AQSH,

Yevropa va Osiyoning qator mamlakatlaridagi xalqaro madaniy tadbirlar, konsert dasturlari va musiqa festivallarida ishtirok etib, doiraning boy ijrochilik imkoniyatlarini keng namoyish etdi. Xorijiy universitetlar, konservatoriyalar va madaniy markazlarda o'tkazgan mahorat darslari orqali o'zbek zarb cholg'ulari an'analarini xalqaro musiqa ta'limi jarayoni bilan bog'lashga munosib hissa qo'shdi.

O'zbek musiqa madaniyatining yangi taraqqiyot bosqichida san'atkorlarning nafaqat ijodiy faoliyati, balki milliy madaniy siyosatni rivojlantirish, san'atni keng targ'ib etish va xalqaro madaniy aloqalarni mustahkamlashdagi ishtiroki ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ana shunday ijodkorlardan biri – O'zbekiston xalq artisti, xonanda va madaniyat sohasi rahbari Ozodbek Nazarbekovdir. Uning ko'p yillik ijodiy faoliyati milliy xonandalik an'analarini asrab-avaylash, xalqona ohanglarni zamonaviy sahna madaniyati bilan uyg'unlashtirish va o'zbek qo'shiqchilik maktabini yangi bosqichda rivojlantirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

So'nggi yillar davrida mamlakatimizda madaniyat va san'at sohasida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar jarayonida Ozodbek Nazarbekov ijodkor va rahbar sifatida milliy musiqa merosini targ'ib qilish, ijodiy muhitni qo'llab-quvvatlash va xalqaro madaniy hamkorlikni rivojlantirish ishlarida faol ishtirok etdi. Uning Turkiya, Ozarbayjon, Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston va boshqa davlatlardagi madaniy tadbirlar, konsert dasturlari hamda ijodiy uchrashuvlardagi ishtiroki o'zbek milliy san'atini xorijiy auditoriyaga tanitishga xizmat qildi. Bunday tadbirlar orqali milliy qo'shiqchilik an'analari, xalq musiqasi va zamonaviy ijro yo'nalishlarining o'ziga xos jihatlari xalqaro madaniy muloqot maydonida namoyon etildi. Uning faoliyatida ustozlik va pedagogik yondashuv ham alohida ahamiyat kasb etadi. Xonanda sifatida orttirgan boy ijodiy tajribasini yosh ijodkorlar bilan o'rtoqlashish, ularning kasbiy mahoratini oshirish va milliy xonandalik an'analari hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan ishlar o'zbek musiqa maktabining uzviy davomiyligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Bugun o'zbek musiqasi taraqqiyotida ijodkor va rahbarlarning ana shunday uyg'un faoliyati milliy san'atimizning

barqaror rivoji, madaniy diplomatiyaning kuchayishi va O'zbekistonning xalqaro madaniy nufuzi ortishiga xizmat qilmoqda.

Zero, musiqa – avlodlarni bog'lovchi ma'naviy ko'prikdir. Unda xalqning tarixi ham, buguni ham, kelajakka bo'lgan ishonchi ham mujassam. Asrlar davomida shakllangan maqom navolari, baxshi dostonlari, xalq qo'shiqlari va zamonaviy ijod namunalari bugun yangi mazmun bilan yangrayotgan ekan, o'zbek musiqasi nafaqat milliy boylik, balki jahon madaniyati xazinasiga munosib hissa qo'shayotgan ulkan ma'naviy qadriyat sifatida yangi asr sahnasida namoyon bo'lmoqda.

Abadiy navolarning jahon madaniyatidagi yangi sadosi – o'zbek musiqa san'atining boy va betakror merosi, bugungi yuksalishi hamda ertangi buyuk istiqbolining yorqin ramzidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bobur, Zahiriddin Muhammad. *Boburnoma*. Nashrga tayyorlovchilar: S.Hasanov va boshq. – Toshkent: Fan, 2002. – 336 b.
2. Forobiy, Abu Nasr. *Kitob al-musiqo al-kabir* (“Musika haqida katta kitob”). Tarjima va sharhlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2010. – 352 b.
3. Oqilov O. *O'zbek musiqa madaniyati tarixidan lavhalar*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – 216 b.
4. UNESCO. *Representative List of the Intangible Cultural Heritage of Humanity: Shashmaqam, Katta Ashula, Askiya, Bakhshi art*. UNESCO Intangible Cultural Heritage official portal, 2008–2021.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori: “O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. PQ-3391-son, 17.11.2017.
6. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi arxivi: “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali statistikasi, 1997–2024.